

SINXRON TARJIMADA EKVIVALENTLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Raufov Miraziz Mustafaqulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: maqolada sinxron tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta'minlashga xos lingvistik, psixolingvistik va pragmatik omillar kompleks tahlil qilinadi. Muallif matn-maqсад va auditoriya omillarini hisobga olgan holda ekvivalentlik darajalarini aniqlash mezonlarini taklif etadi hamda real konferensiya korpusidan olingan misollar asosida muammoli holatlarni tasniflaydi. Natijalar sinxron tarjimonlar tayyorlash dasturlariga integratsiya qilinishi mumkin bo'lgan metastrategiyalarni ishlab chiqishni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, ekvivalentlik, tengma-tenglik bosqichlar, kognitiv yuklama, diskurs analizi, madaniy kommunikatsiya, pragmatik moslashuv, strategik qisqartirish.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ ПРИ СИНХРОННОМ ПЕРЕВОДЕ

Рауфов Миразиз Мустафакулович

Независимый научный сотрудник Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация: в статье дается комплексный анализ лингвистических, психолингвистических и прагматических факторов, способствующих обеспечению эквивалентности в процессе синхронного перевода. Автор предлагает критерии определения уровней эквивалентности с учетом

факторов цели текста и аудитории, а также классифицирует проблемные ситуации на основе примеров, взятых из реального корпуса конференций. Результаты предполагают разработку метастратегий, которые можно интегрировать в программы обучения синхронных переводчиков.

Ключевые слова: *синхронный перевод, эквивалентность, этапы эквивалентности, когнитивная нагрузка, дискурсивный анализ, культурная коммуникация, прагматическая адаптация, стратегическая редукция.*

PROBLEMS OF ENSURING EQUIVALENCE IN SIMULTANEOUS INTERPRETING

Raufov Miraziz Mustafaqulovich

Independent researcher at the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Annotation: *the article provides a comprehensive analysis of linguistic, psycholinguistic and pragmatic factors inherent in ensuring equivalence in the process of simultaneous translation. The author proposes criteria for determining equivalence levels, taking into account text-purpose and audience factors, and classifies problematic situations based on examples from a real conference corpus. The results indicate the development of metastrategies that can be integrated into simultaneous interpreter training programs.*

Keywords: *simultaneous translation, equivalence, equivalence stages, cognitive load, discourse analysis, cultural communication, pragmatic adaptation, strategic reduction.*

Bugungi globallashuv sharoitida turli tillarda tez va aniq axborot almashinuvi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro konferensiyalar, siyosiy uchrashuvlar va biznes forumlarda sinxron tarjima xizmatiga ehtiyoj ortib bormoqda. Sinxron tarjimon qisqa vaqt ichida manba tilidagi nutqni eshitib, uni tarjima tiliga og'zaki tarzda yetkazadi. Bu jarayonda asosiy vazifa — ekvivalentlikni, ya'ni manba matn mazmuni, uslubi va pragmatik maqsadlarini imkon qadar to'liq va aniq yetkazishdan iborat [1; 2].

Ekvivalentlik masalasi tarjima nazariyasida eng muhim va murakkab jarayonni o'z ichiga olgan tushunchalardan biri hisoblanadi. Nida [2] va Newmark [10] o'zlarining asarlarida ekvivalentlik matn mazmuni va funksiyasining mos kelishi sifatida talqin qilinadi. Sinxron tarjimada esa bu masala yanada murakkablashadi, chunki tarjimon vaqt bosimi ostida, cheklangan kognitiv resurslar bilan ishlaydi va har bir so'z yoki iborani to'g'ri, aniq va tez tarjima qilishi kerak [3;8]. Shu sababli, sinxron tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun nafaqat til bilimlari, balki tez fikrlash, oldindan taxmin qilish, segmentatsiya va qisqartirish kabi strategiyalar ham muhim ahamiyatga ega [4;5].

Amaliyotda sinxron tarjima so'nggi yillarda rivojlanib borishi bilan bir qatorda sinxron tarjimonlar tayoorlash ham ommalashmoqda. Ular amaliyotda ko'pincha grammatik ekvivalentlikka haddan tashqari e'tibor qaratib, kontekst va pragmatik ma'nolarni yetarlicha hisobga olmaydilar [6;9]. Natijada, madaniy so'zlar, metaforalar, raqamlar va terminlarning noto'g'ri yoki noaniq tarjima qilinishi, auditoriya uchun tushunarsiz yoki noto'g'ri ma'lumot yetkazilishiga olib keladi [7;15]. Bu esa, sinxron tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinxron tarjimada ekvivalentlik masalasi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Chernov [1] va Seleskovitch [3] sinxron tarjima jarayonida ekvivalentlikka erishish uchun segmentatsiya va qisqartirish strategiyalarini asoslab bergan. Nida [2] va Newmark [10] ekvivalentlikni matn mazmuni va funksiyasining mos kelishi sifatida talqin qilgan. Wilss [5] va Gile [8] esa tarjimonning kognitiv yuklamasi va strategik qarorlarini tahlil qilgan.

O'zbekiston olimlari orasida Yuldasheva [6] sinxron tarjimada qisqartirish va generalizatsiya strategiyalarini, Karimov [7] esa parlament nutqlarida terminologik ekvivalentlik muammolarini o'rgangan. Toshmurodov [9] diskurs va madaniy konnotatsiyalar tarjimasi muammolarini tahlil qilgan. Bekmurodov [15] raqamlar va statistik ma'lumotlarni tarjima qilishdagi xatolarni o'rgangan. Bu tadqiqotlar sinxron tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun nafaqat til bilimlari, balki madaniy va pragmatik kompetensiya ham muhimligini ko'rsatadi.

Xalqaro adabiyotda Gutt [11], Baker [13] va Boase-Beier [16] ekvivalentlikni pragmatik va kognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilgan. So'nggi yillarda sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlari ham ekvivalentlik indikatorlarini aniqlashda qo'llanilmoqda [18].

Tadqiqot davomida Toshkent shahrida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda qilingan sinxron tarjimalar konferensiyaning o'zida tinglovchi sifatida ishtirok etilib, sinxron tarjima tahlil qilindi. Tahlil natijasida ekvivalentlik bilan bog'liq muammolar quyidagi asosiy toifalarga ajratildi: leksik, terminologik, pragmatik va sintaktik xatolar.

Leksik xatolar ko'pincha madaniy so'z va iboralarning noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan tarjimasi bilan bog'liq bo'ldi. Masalan, o'zbek tilidagi "mahalla" so'zi ingliz tiliga "district committee" deb tarjima qilindi, bu esa asl ma'noni to'liq aks ettirmaydi, chunki "mahalla" o'zbek jamiyatida o'ziga xos ijtimoiy institut hisoblanadi [6;9]. Yana bir misol: "do'ppi" so'zi "hat" deb tarjima qilindi, natijada milliylik va madaniy rang-baranglik yo'qolib qoldi.

Terminologik xatolar asosan raqamlar va ilmiy atamalar tarjimasida uchradi. Masalan, ingliz tilidagi "billion" so'zi o'zbek tilida "milliard" deb tarjima qilinishi kerak, biroq ba'zi hollarda "billion" so'zi "billion" deb qoldirildi yoki "million" deb noto'g'ri tarjima qilindi, natijada statistik ma'lumotlar noto'g'ri yetkazildi [7;15]. Yana bir misol: "GDP" (Gross Domestic Product) atamasi ba'zan "umumiy ichki mahsulot" o'rniga "daromad" deb tarjima qilindi, bu esa iqtisodiy tushunchaning noto'g'ri talqin qilinishiga olib keldi.

Pragmatik xatolar, asosan, hazil, metafora yoki ironiyaning literal tarjima qilinishi natijasida yuzaga keldi. Masalan, "He kicked the bucket" iborasi "U chelakni tepdi" deb so'zma-so'z tarjima qilindi, aslida esa bu ibora "U vafot etdi" degan ma'noni anglatadi [11;13]. Yoki "pulling someone's leg" iborasi "uning oyog'ini tortmoqda" deb tarjima qilindi, aslida esa bu "hazillashmoqda" degan ma'noni bildiradi.

Sintaktik xatolar esa, asosan, murakkab va uzun gaplarni qismlarga ajratmasdan tarjima qilish natijasida yuzaga keldi. Masalan, manba tilidagi "Despite the economic challenges, the government managed to implement several reforms aimed at improving the business climate and attracting foreign

investment” gapini tarjimon to‘xtovsiz, bir nafasda tarjima qilgan, natijada auditoriya mazmunni to‘liq anglay olmadi. To‘g‘ri yondashuvda esa ushbu gap qismlarga bo‘linib, har bir qism alohida va aniq yetkazilishi kerak edi [3].

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, jami xatolarning 35,3 foizi leksik, 27,1 foizi terminologik, 23,4 foizi pragmatik va 14,2 foizi sintaktik xatolar hissasiga to‘g‘ri keldi.

Ekspertlar ishtirokida o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, “segmentatsiya va qisqartirish” hamda “oldindan taxmin qilish” strategiyalari xatolar sonini kamaytirishda samarali bo‘ldi. Masalan, murakkab gaplarni qismlarga ajratib tarjima qilish yoki terminlarni oldindan tayyorlash orqali xatoliklar 10–12 foizga kamaydi [6;12].

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, sinxron tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun nafaqat til bilimlari, balki madaniy va pragmatik kompetensiya, shuningdek, tez va to‘g‘ri strategik qarorlar qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Tarjimonlar uchun terminologik bazani oldindan tayyorlash, madaniy so‘z va iboralarni to‘g‘ri yetkazish, gaplarni qismlarga ajratib tarjima qilish va pragmatik ma’nolarni hisobga olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot davomida “segmentatsiya va qisqartirish”, “oldindan taxmin qilish” kabi strategiyalar xatoliklarni kamaytirishda samarali ekani aniqlandi. Shuningdek, terminologik bazani oldindan tayyorlash, madaniy birliklarni izohli tarjima qilish va har bir nutq segmentini qisqa va aniq yetkazish ekvivalentlik darajasini oshiradi.

O'zbekiston amaliyotida sinxron tarjimonlar tayyorlashda ushbu natijalar asosida maxsus treninglar, xato tahlili va amaliy mashg'ulotlarni kuchaytirish tavsiya etiladi. Sinxron tarjimada ekvivalentlikka erishish uchun zamonaviy nazariyalar va mahalliy tajriba uyg'unligiga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Chernov, G. V. (2004). *Theory and Practice of Simultaneous Interpretation*. Moscow: Izd. RUDN.
2. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill.
3. Seleskovitch, D. & Lederer, M. (1989). *Interpréter pour traduire*. Paris: Didier.
4. Pöchhacker, F. (2016). *Introducing Interpreting Studies*. London: Routledge.
5. Wilss, W. (1982). *The Science of Translation*. Tübingen: Narr.
6. Yuldasheva, Sh. (2018). *Sinxron tarjima asoslari*. Toshkent: TDYuI nashriyoti.
7. Karimov, A. (2020). "Parlament debatlarida terminologik ekvivalentlik muammolari." *Til va Tarjima*, 4(2), 44-52.
8. Gile, D. (2009). *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. Amsterdam: Benjamins.
9. Toshmurodov, M. (2021). "Diskurs pragmatikasi va tarjimada konnotatsiya." *Filologiya Masalalari*, 1, 107-115.
10. Newmark, P. (1988). *A Textbook of Translation*. London: Prentice Hall.

11. Gutt, E.-A. (2014). *Translation and Relevance*. London: Routledge.
12. Dalkey, N. & Helmer, O. (1963). "An Experimental Application of the Delphi Method." *RAND Report* RM-727.
13. Baker, M. (2018). *In Other Words* (3rd ed.). London: Routledge.
14. Setton, R. & Dawrant, A. (2016). *Conference Interpreting – A Complete Course*. Amsterdam: Benjamins.
15. Bekmurodov, R. (2019). "Sinxron tarjimada raqamlar xatosi tipologiyasi." *O'zbek Tili va Adabiyoti*, 2, 78-84.
16. Boase-Beier, J. (2014). *Stylistic Approaches to Translation*. London: Routledge.
17. Komissarov, V. N. (1999). *Teoriya perevoda*. Moscow: Gardariki.
18. Bentivogli, L., et al. (2020). "Neural Simultaneous Translation Models." *ACL Proceedings*, 38-48.
19. Turdiev, Z. (2022). "Metaforik birliklarning tarjimaviy ekvivalentligi." *Jahon Tillari*, 6, 55-63.
20. Levý, J. (2011 [1967]). *The Art of Translation*. Amsterdam: Benjamins.